

O'zbekistonda Gender Tengligining Ta'minlanishining Ayrim Masalalari

Qallibekova Zulkummar¹

REZYUME: Ushbu maqolada O'zbekistonda gender tengligining ta'minlanishining ayrim masalalari, xususan gender tengligi va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, xususan, ayollarga qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, oiladagi barcha insonlarga gender tengligi xaqida to'g'ri bilim berish, ya'ni oilada tarbiya olayotgan yosh farzandlar ongida, «jamiyatda erkak va ayollarning mavqeini tenglashtirish»ga oid bilim va dunyoqarashi hamda fikrlash madaniyatini shakllantirish bilan yondashuvning birinchi ko'pchilikni tashkil etishi haqida fikr bildiriladi.

Tayanch so'zlar: gender ta'limi, zamonaviy oila kontseptsiyasi, tarixiy transformatsiya, insoniylashtirish, uslublar tipologiyasi, buyuk ota-onalar inqilobi, zamonaviy oilaviy qadriyatlarni shakllantirish, oilaviy munosabatlar.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan keyin rivojlanishning, taraqiyotning yangi bosqichi boshlandi. Oilaga, xotin-qizlarga, bolalarga, farzanglarga bo'lган munosabat davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, hukumat qarorlari, Davlat dasturlari, xotin-qizlarning jamiyat rivojidagi faol ishtirokini ta'minlash, gender tenglikka e'tibor qaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi paytlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida gender tengligi muammolarini muhokama qilish ommaviy tus oldi. Kasbiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatda ayollarga yoki erkaklarga nisbatan munosabatni bildirish zarurligiga hech kim shubha qilmaydi.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvdagi o'rni tobora mustaxkamlanib bormoqda. Yangi parlamentimizda xotin deputatlarning soni ikki karra oshirildi. Globallashuv davrida xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarda ishtiroki tobora ortib bormoqda va bu holatni saylov jarayonlarida ham kuzatish mumkin. BMTning 1952 yilgi Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi Konventsiyasida ayollar har qanday saylovlarda erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishlarsiz ovoz berish, hamda saylanish huquqlariga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan. Vakillik organlariga bo'lib o'tgan so'nggi saylov natijalari taqqoslanadigan bo'lsa, barcha partiyalar nomzodlarning kamida 30 foizi ayollardan iborat bo'lishi lozimligi haqidagi qonun talabini bajargan. Jumladan, partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarning 41 foizini ayol nomzodlar tashkil etgan. Ushbu holat YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi tomonidan ham ijobjiy baholangan. [1]

Ruscha "gender" atamasi, inglizcha "gender" so'zi ham dastlab juda tor ma'noga yo'naltirilgan bo'lib, faqat grammatika sohasiga tegishli bo'lган. Gender nomining o'zi jinsini biologik jinsdan ajratib ko'rsatuvchi atama. [2].

Gender tengligi strategiyasini amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi- ning asosiy maqsadlaridan biridir. Tashkilot 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi maqsad- lariga erishish, shuningdek, gender tengligi uchun ayollar imkoniyatlarini kengaytirish muhimligini tan oladi. Gender tengligi strategiyasini amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi- ning

¹ Qoraqalpog'iston qishloq xujaligi va axgotexnologiyalar instituti Gumanitar fanlar va tillar kafedrasini mudiri, docent



asosiy maqsadlaridan biridir. Tashkilot 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi maqsad- lariga erishish, shuningdek, gender tengligi uchun ayollar imkoniyatlarini kengaytirish muhimligini tan oladi.

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rnlarni egallahsgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan.

O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi. [3].

Bugungi kunga kelib O'zbekiston gender tengligini ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishdi. O'zbekiston gender tengligi va gender rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ham yetakchi o'rinni egallyaydi: ayollar uchun gender rivojlanish indeksi (GRI) erkaklarnikiga nisbatan 0,795 ni tashkil etadi, bu ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik yuqori darajasini ko'rsatadi (gender rivojlanishning umumiy indeksi) - 1006). [3]

O'zbekistonda Milliy gender siyosati mafkurasi, bir tomonidan, ayollar muammosini hal etishda umum-jahon demokratik tamoyillarning e'tiborga olingan ligi, ikkinchi tomonidan esa, Sharqqa xos bo'lgan oila va jamiyatni birlashtirib turadigan, bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega ayollarga ehtirom xususiyat- lari inobatga olinganligini ta'kidlash lozim

Hozirgi kunda gender byudjeti haqida tez-tez tilga olinadi. Bu ayollar alohida, erkaklar alohida moliyalashtirilishi kerak degani emas. Masalan, yo'l qurilishi jarayonida nogironlar aravachasidagilar uchun yo'lakning qurilishi, maxsus moslashtirilgan to'xtash joylarining ochilishi gender sezgirligini ko'rsatadi. Byudjetni taqsimlashda ijtimoiy omillarni hisobga olish kerak. Ko'p odamlar gender byudjetini erkaklar va ayollar uchun alohida moliyalashtirish deb tushunishadi. Gender ta'llimiga zamonaviy oila kontseptsiyasini joriy etish zarur. [4].

Gender yondashuvga, ya'ni gender tenglikni ta'minlash uchun eng avvalo oiladagi barcha insonlarga bu yondashuv haqida bilim berish zarur, ya'ni oilada tarbiya olayotgan yosh farzandlar ongida, «jamiyatda erkak va ayollarning mavqeini tenglashtirish»ga oid bilim va dunyoqarashi hamda fikrlash madaniyatini shakllantirish bilan yondashuvning birinchi pog'onasini zabit etish mumkin;

Hozir odamlar qadimiylar analarga qaytish yoki zamonaviy oilaviy qadriyatlarni shakllantirish haqida o'ylashadi. O'zbek jamiyati genderga nisbatan sezgir bo'lgan. Bu bizning "singlimiz" degan so'zlardan ham ma'lum. Bu oilaviy munosabatlар boshqa xalqlar, millat uchun ham namuna bo'la oladi desak yanglishmagan bo'lamic. Ayol bir qo'li bilan beshikni, bir qo'li bilan dunyonni tebratadi. Bu gender sezgirligini anglatadi.

Hozirgi bozor munosabatlari sharotida biz eng muhim qadriyatlarni unutib qo'ydik va "uyat", "o'g'irlash" kabi eng past qadriyatlarni keltirib chiqardik. Shuning uchun, to'g'ri yetkazib berish uchun zamonaviy gender siyosati eski an'anani yangidan boyitishi kerak. Bizga o'zaro yarashish kerak, janjal qilishning hojati yo'q. Sovet davrida yolg'iz onalar instituti ham paydo bo'lgan. Yolg'iz onalar qahramonga aylanishdi. An'anaviy qadriyatlarning "turi" va tushunchasi buzila boshladi. Bugungi kunda ayollar o'z huquqlarini himoya qilishga harakat qilmoqdalar. Lekin birinchi navbatda biz o'z huquqlaringizni qanday himoya qilishni bilishimiz kerak. Biz o'z burchimizni unutmasligimiz kerak. Chunki endi bu muammoga aylandi. U ayollar va yoshlarning haq- huquqlarini biladi, lekin javobgarlikdan qochadi. Misol uchun, agar ayol rahbar bo'lismi tanlasa, u erkakdan uch barobar



ko'proq talabchan bo'ladi. Chunki ayollar tabiatan raqobatchi hisoblanadi. Olim E.Badenter ishlarida keltirilgan. U erkaklarni «insoniyashtirish» jarayonini ishonchli ko'rsatib bera olgan. Erkaklar hayot uslublari tipologiyasini asoslagani holda, u mayib, erkak tipini eng keng tarqalgan tur, deb belgilaydi. Shuningdek, u mazkur qat'iy gender rollarini —buyuk ota-onalar inqilobi tomon yo'naltirilgan gumanistik harakat orqali bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlarini taklif etadi [4].

Ma'lumki, O'zbekistonda 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilingan. Ushbu hujjatda 2030 yilgacha barcha xotin-qizlarga nisbatan kansitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha darajalarda ayollar to'liq va samarali ishtirot etishi va yetakchilik qilishi uchun teng imkoniyat yaratiladi. Bunda turli darajalarda Davlat dasturlari qabul qilinishi jarayonida gender tenglik tamoyiliga amal qilinishi masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan

Xulosa qilib aytganda, har bir xalq o'z tarixiy an'anasi, urf-odati, ma'naviy qadriyatiga suyanib yashaydi. Bunday tushunchalar turmush kechirish jarayonida hisobga olinadi, albatta. Zero, jamiyatning hayot kechirishi, taraqqiyotga intilishi, yuksalishi shundan kuch oladi. Har tomonlama farovon hayotga erishishni maqsad qilgan jamiyat o'z a'zolarining irqi, jinsi, tili va diniy mansubligiga qaramay, huquqiy tengligini ham to'la-to'kis ta'minlashi o'ta muhim masala ekanini unutmasligi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон гендер тенглиги ва гендер ривожланишнинг асосий кўрсаткичлари. Н.Р.Аннаева – Мустақил тадқиқотчиурганч давлат университети. Илим ҳэм жемийет. 2022 №2
2. Гендер муносабатлари назарияси ва амалиётга кириш. –Т.: «Ўзбекистон», 2007.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi.
4. Шабурова О.В.Гендер. //Современный философский словарь под ред. В.Е.Кемерова. – Минск: «Панпринт», 1998. -C.183.

